# NAVBATDA TURISHNIBILASIZMI? *mavzusida 2-sinf ona tili fanidan bir soatlik ochiq dars ishlanmasi*

***Satvaldiyeva Saidaxon Abdumuminovna***

***Andijon viloyati Jalaquduq tuman***

***Xalq talimiga qarashli***

***28--umumiy o'rta ta"lim maktabining***

***Boshlang'ich sinf o'qituvchisi***

**Mavzu:** Navbatda turishni bilasizmi

**Maqsad:** O'quvchilarga DTS talablari asosida bilim berish. Matn mazmuniga munosabat bildira olishga o'rgatish.

**Ta"limiy:** O'quvchilarni vatanimiz poytaxti Toshkent shahri bilan tanishtirish, shahardagi o'zgarishlar va yangiliklar haqidagi fikr mulohazalarini boyitish.

**Tarbiyaviy:** O'quvhilarni mehnat sevarlikka, jismoniy yetuk bo'lishga, ona vatanni asrab avaylashga o'rgatish

**Rivojlanturivchi:** O'quvchilarni og'zaki nutqini oshirish. Mustaqil fikrlashgao'rgatish.

**O`quv jarayoniga oid kompetensiya: .F.k.1.** o'qilgan matnlarning mazmunini tushuna oladi va mavzuga mos maqol va hikmatli so'zlarni topa oladi;**T.k.3.** mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish;

**Darsning turi:** Yangi bilim berish.

**Dars metodi:ko'rgazmali**suhbat, savol-javob, aqliy hujum.

**Dasrning jihozi:** mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar.

Darsning borishi.

| T/R | Bo'limlar | Vaqti |
|---|---|---|
| **1** | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| **2** | O`tgan mavzuni mustahkamlash | 5 daqiqa |

| | | |
|---|---|---|
| **3** | Yangi mavzu bayoni | 15 daqiqa |

| | | |
|---|---|---|
| **4** | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| **5** | O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash. | 10 daqiqa |
| **6** | Uyga vazifa | 2 daqiqa |
| **Jami** | | 45 daqiqa |

**I.** **Tashkiliy qism:**a) salomlashish

b) davomotni aniqlash

c) ma'naviyat daqiqasini o'tkazish

–Yurtim bo'ylab sayohat.‖ mavzusida suhbat o'tkazish.

d) ingliz tili daqiqasi: Ee [i:], Ff [ef], Gg [dzi:]

DARS ShIORI

*QUNT BILAN O'RGAN HUNAR,HUNARDAN RIZQING UNAR*.

**O`quvchilar:** «Salom» assalom so'zi, So'zlar ichra durdona. Mehrning ifodasi, hamda hurmat yagona.Eng avvalo ustozlar, Assalomu alaykum.

**O`qituvchi:** Vaalaykum assalom aziz o'quvchilar.

Salom berish - bu, a'lo alomat.

Salom berganlar, bo'ling salomat.

Aziz o'g'il qizlarim, Bugun hamma sog`lommi?

Darsga hamma tayyormi?

O`quvchilar: Ustoz bizlar sog`lommiz,

Darsga to`liq tayyormiz.

**O`qituvchi:** Qani bolajonlarim,

Mehri qaynoq buloqlorim.Hozir nima darsimiz,

**O`uvchilar:** Hozir «O'qish» darsimiz,

Chin inson farzandimiz.Olib biz sabog'ingiz, A'lo

o'qish shiorimiz.

**O`qituvchi:** Aziz bolajonlarim

Kimdir bugun navbatchi,

Yo'qlamani beringchi.

**Navbatchi o'quvchi:**Men navbatchi sinfda,

Sinfimiz doim yuzda.

Chang g'uborlar artilgan,

Suvlar ham qaynatilgan.

Biz yengil formadamiz,

Odobda oldindamiz.

**II.** O’tgan mavzuni so’rash va mustahkamlash.

O‘tgan mavzu asosida savol-javob o‘tkazish. Ularni tinglash o‘rtoqlari bergansavollarga javoblarini tinglash.

1 Diloromning oldida nechta yo’l bor? Ular qanday yo’llar?

2 Birinchi yo’lda Dilorom nega navbatini kutmadi?

3 Ikkinchi yo’lda Dilorom nega sabr qilish kerak deb o’yladi?

4 Sabrsizlikning jazosi nima bo’ldi?

5 5 Sabrning mukofoti nima bo’ldi?

**III.** Yangi mavzuning bayoni.



**Berilgan matnlarni o'qing. Matnga mos sarlavhani belgilang.**

Ota-bobolarimiz nonni juda qadrlashgan. Nonning ushog'ini ham uvol qilmaslikka chaqirishgan. Nonni isrof qilishni esa katta gunoh sanashgan.

Navbatlarda jismonan ojiz insonlarga – bolali onalar, keksalar va nogironlarga yo'l beradilar. Bu toifaga kirmaydigan insonlar esa o'zaro hurmat va intizom asosida navbatga turadilar.

Qadimda bobolarimiz suvga tupurish, turli chiqindilarni tashlashni gunoh deb bilishgan. Suvni ifloslantirgan odamni jazolashgan. Suvni qadrlash, tejash har birimizning burchimizdir.

- ULUG' NE'MAT
- NON QADRI
- TARTIB-INTIZOM
- SUV – HAYOT MANBAYI
- NAVBATDA TURISH ODOBI

**Uch guruhga bo'lining. Quyidagi jadvalni xattaxtada to'ldiring.**

| O'quv qurollari | Maktab va sinfdagi jihozlar | Maktabda kimlar ishlashi va o'qishi |
|---|---|---|
| | | |

"XOTIRA MASHQI"

Bolajonlar biz maktab rasmida nimalarni ko'rdik



**"Kim chaqqon?" (savolga javob bering.)**

Bizning maktabimiz direktori kim va maktabimiz raqami nechi

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**Dialog matnini tartiblang va o'qing.**



- Iye, sigir bor-u, o'tloq yo'q-ku!
- Mana bu o'tloqda sigir o'tlab yuribdi.
- Hamma o'tlarni sigir yeb qo'ygan-da, dedi o'quvchi.
- O'quvchi chizgan rasmini o'qituvchisiga ko'rsatdi:

**Rasmlar asosida kichik matn yozing. Kalit so'zlardan foydalaning.**



*Birinchi, ikkinchi, keyin, so'ngra, navbat bilan, oxirida*




**V. Baholash** Dars yakunida umumiy ballar e'lon qilinadi va faol, bilimdono'quvchilar rag'batlantiriladi.

**VI.** Uyga Vazifa: Mening maktabim nomli hikoya tuzish

Foydalanilgan adabiètlar ro`yxati

1. Jomonov R.O. O`zbek tilida so`z o`zlashtirishva imlo muammolari. – T.: O`zbekiston. 2013..

M. I. Matusevich. Vvedeniye v obщuyu fonetiku. M., 1941. 3.Zinder. L.R. Obщaya fonetika. M.,